



UZUNQIR YODGORLIGI: QASHQADARYO VOHASIDAGI ILK TEMIR DAVRI SHAHARSOZLIK MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Jalilov Asqar

Shahrisabz davlat muzeyi xodimi

e-mail: jalilovasqar1992@gmail.com

Tel: +998912110155

Qambarov G'ayrat

Shahrisabz davlat muzeyi xodimi

e-mail: qambarovg'ayrat@gmail.com

Tel: +998912110155

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasi, Kitob tumani hududida, Sho'robsoy sohilida joylashgan Uzunqir shahar xarobasining tarixiy-arxeologik ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Yodgorlikning kashf etilishi va o'rganilish tarixi, uning miloddan avvalgi IX–IV asrlarni qamrab olgan uch bosqichli (Uzunqir I, II, III) davrlashtirilishi, mudofaa tizimining bosqichma-bosqich murakkablashib borishi, shahar rejalashtirilishi hamda kulolchilik majmuasining tipologik xususiyatlari yoritiladi. Uzunqir Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Sangirtepa va Daratepa kabi zamondosh yodgorliklar bilan qiyoslanib, uning Janubiy Sug'd hududidagi shaharlar ierarxiyasida tutgan o'rni — Nautaka viloyatining yirik markazi va harbiy-istehkom shahri sifatidagi mavqei asoslab beriladi. Shuningdek, yodgorlikning Ahmoniylar davri siyosiy tuzumi va Makedoniyalik Aleksandr yurishlari bilan bog'liq tarixiy voqealardagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.



Kalit so'zlar: Uzunqir, Kitob tumani, Sho'robsoy, ilk temir davri, Sug'd, Nautaka, Kesh vohasi, mudofaa devori, arxeologik qazishma, shaharsozlik madaniyati, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Sangirtepa, urbanizatsiya.

Markaziy Osiyoning qadimgi tarixida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish tarix fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilk temir davrida mintaqada yuzaga kelgan yirik istehkomli manzilgohlar nafaqat moddiy madaniyat taraqqiyotini, balki ilk davlatchilik tuzilmalarining shakllanish jarayonini ham o'zida aks ettiradi. Shu boisdan, O'zbekiston tarix fanida so'nggi o'n yilliklarda Sug'd, Baqtriya va Xorazm vohalaridagi ilk shahar markazlarini har tomonlama o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu jarayonda Qashqadaryo vohasi, xususan, qadimgi Kesh (hozirgi Shahrisabz-Kitob) vohasi alohida o'rin tutadi. Podayotoqtepa, Sangirtepa va Uzunqir kabi yodgorliklar majmuasi ushbu vohaning ilk shaharsozlik tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bular ichida Uzunqir yodgorligi o'zining yaxshi saqlangan mudofaa inshootlari, aniq stratigrafik qatlamlanishi va boy sopol majmuasi bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi: birinchidan, Uzunqir materiallari Sug'd davlatchiligining ilk bosqichlarini rekonstruksiya qilishda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan, yodgorlikning zamondosh markazlar bilan qiyosiy tahlili mintaqadagi urbanizatsiya jarayonining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi; uchinchidan, yodgorlikka oid ma'lumotlarning turli manbalarda tarqoq holda berilganligi ularni tizimlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsadi — Uzunqir yodgorligining davrlashtirilishi, arxitektura-rejalashtirish xususiyatlari, moddiy madaniyati hamda mintaqaviy tarixdagi o'rnini mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tizimli va qiyosiy tahlil





qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: yodgorlikning kashf etilishi va o'rganilish tarixini yoritish; uning xronologik bosqichlarini tavsiflash; mudofaa tizimi va shahar rejasini tahlil qilish; kulolchilik majmuasining tipologik xususiyatlarini aniqlash; Uzunqirni zamondosh yodgorliklar bilan qiyoslash; yodgorlikning kengroq siyosiy-tarixiy kontekstdagi o'rnini belgilash.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod Uzunqirni zamondosh yodgorliklar — Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Sangirtepa va Daratepa bilan solishtirish imkonini berdi. Stratigrafik tahlil usuli yodgorlikning davriy bosqichlarini (Uzunqir I, II, III) ajratib ko'rsatishda qo'llanildi. Tipologik tahlil kulolchilik majmuasining xronologik jihatdan tasniflanishida asosiy vosita bo'ldi. Shuningdek, tizimli yondashuv orqali yodgorlik alohida obyekt sifatida emas, balki Janubiy Sug'dning yaxlit shaharlar tarmog'i tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Manba bazasi sifatida Uzunqirga bag'ishlangan monografiyalar, ilmiy maqolalar, arxeologik hisobotlar va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Uzunqir shahar xarobasi hozirgi Qashqadaryo viloyati Kitob tumani hududida, Sho'robsoy daryosining sohilida joylashgan. Yodgorlik qadimgi Kesh vohasining — Shahrisabz-Kitob tekisligining shimoliy-sharqiy qismida, unumdor sug'oriladigan yerlar va tog' etaklari oralig'ida barpo etilgan. Bunday geografik joylashuv aholiga bir vaqtning o'zida sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va tog' resurslaridan foydalanish imkonini bergan. Kesh vohasining tabiiy-geografik sharoiti — Qashqadaryo va uning irmoqlaridan sug'orish tarmoqlarini yaratish imkoniyati — bu yerda ilk shahar markazlarining barqaror rivojlanishi uchun qulay zamin yaratgan. Vohaning strategik joylashuvi, ya'ni Sug'd, Baqtriya va Choch o'rtasidagi savdo-transport yo'llari kesishmasida turishi, Uzunqirning nafaqat xo'jalik, balki harbiy-strategik ahamiyatini ham oshirgan.



Uzunqir yodgorligi arxeologik jihatdan bir necha bosqichda o'rganilgan. Dastlabki ma'lumotlar sovet davri arxeologik ekspeditsiyalari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu davrda Qashqadaryo vohasining ilk temir davri yodgorliklari — Daratepa, Sangirtepa va Uzunqir kabi obidalar mahalliy va rus arxeologlari tomonidan dastlabki bor ilmiy muomalaga kiritildi. A. Asqarov singari tadqiqotchilarning Qashqadaryo vohasidagi qadimgi Nasaf yodgorliklariga bag'ishlangan ishlari ushbu yo'nalishdagi dastlabki yirik tadqiqotlardan hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixni haqqoniy yoritish borasidagi davlat siyosati tufayli Sug'd vohasining ilk shahar markazlarini o'rganishga yangicha, tizimli yondashuv kuchaydi. Xususan, 1980–1990-yillardan boshlab Ko'ktepa, Yerqo'rg'on va Uzunqir kabi noyob obidalarda keng ko'lamli qazishma ishlari yo'lga qo'yildi. Ushbu tadqiqotlarda R. Sulaymonov, M. Isamiddinov, Sh. Odilov, A. Sa'dullayev va boshqa bir qator o'zbek arxeologlarining hissasi katta bo'ldi.

Alohida ta'kidlash joizki, 1994-yildan boshlab M. Isamiddinov va fransuz arxeologi K. Rapen rahbarligida tashkil etilgan O'zbekiston-Fransiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi Janubiy va Shimoliy Sug'd yodgorliklarini, jumladan Ko'ktepa va Kesh vohasi obidalarini zamonaviy uslubiy asosda o'rganishga katta hissa qo'shdi. Qo'shma ekspeditsiya doirasida qo'llanilgan stratigrafik qazish uslublari, kulolchilik topilmalarining tipologik va trassologik tahlili Uzunqir va unga yondosh yodgorliklarning xronologiyasini aniqlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, R. Sulaymonovning ko'p yillik tadqiqotlari natijasida Uzunqirning mudofaa devori qalinligi, ichki qurilish texnikasi va sopol majmuasi bo'yicha muhim ma'lumotlar to'plandi.

So'nggi yillarda Qarshi davlat universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan Kesh vohasi



arxeologiyasiga bag'ishlangan dissertatsiya va monografik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, bu esa Uzunqirga oid ma'lumotlar bazasini yanada boyitmoqda.

Arxeologik qatlamlarning eng quyi qismi Uzunqir I bosqichiga oid bo'lib, bu davr miloddan avvalgi IX asrning oxiri va VIII asrlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichda aholi hali charx qurilmasidan foydalanmagan, sopol idishlar qo'lda yasalgan. Idishlar, asosan, yarim doira shaklida bo'lib, ularning ichki va tashqi yuzalari qizil-jigarrang angob bilan qoplangan. Bu davr materiallari Sangirtepa I va Yerqo'rg'on I bosqichlariga xos topilmalar bilan yaqin o'xshashlik kasb etadi, bu esa vohada bir davrda, bir-biriga yaqin madaniy an'analar asosida dastlabki qishloq tipidagi manzilgohlarning shakllanganidan dalolat beradi.

Ikkinchi bosqichda hunarmandchilikda sifat jihatidan sakrash yuz beradi: kulolchilik charxi joriy etiladi, natijada silindrokonus shaklli xumlar, xumchalar, tog'oralar va bikonik shakldagi kosalar paydo bo'ladi. Ba'zi idishlarning gardish qismi aylanasi bo'ylab tiniq jigarrang angob bilan bezatilgan, xum va xumchalarning yelkasi to'lqinsimon shaklda ishlangan. Aynan shu davrda mudofaa tizimi ham murakkablashadi: birinchi mudofaa devorining ichki tomonidan unga tutashtirib, taxminan 1,6 metr qalinlikdagi ikkinchi devor qad ko'taradi. Bunda birinchi devordagi jangovar shinaklar bekitilib, faqat minoralar zimmasidagi shinaklar saqlab qolinadi — bu holat mudofaa strategiyasining minoralariga asoslangan tizimga o'tganidan xabar beradi.

Uchinchi, so'nggi bosqichda mudofaa devori yana bir bor qayta tiklanadi va mustahkamlanadi. Turli tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davrda devor qalinligi 4,65 metrga yetkazilgan; shu bilan birga, R. Sulaymonovning umumlashtirilgan ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Uzunqir qal'asining mudofaa tizimi majmuiy holda 8 metrgacha qalinlikka ega bo'lgan, xom g'ishtdan terilgan tashqi devor va "bulkasimon" shakldagi g'ishtlardan qad ko'targan ichki devordan iborat bo'lgan. Ushbu ma'lumotlardagi farqlar, ehtimol, o'lchash nuqtalarining farqi (asosiy devor yoki



butun mudofaa majmuasi kesimi) yoxud turli qazishma uchastkalaridagi lokal farqlar bilan izohlanishi mumkin va bu masala keyingi tadqiqotlarda aniqlashtirishni talab qiladi. Uzunqir III bosqichida qal'a devorlari bo'ylab aholi turar-joylarining izlari ham qayd etilgan bo'lib, bu shahar aholisining zichlashuvi va ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvidan dalolat beradi.

Uzunqirning mudofaa tizimi mintaqadagi eng rivojlangan fortifikatsiya namunalaridan biri sifatida baholanadi. Mutaxassislarning fikricha, Uzunqirdagi mustahkam burjlar va jangovar shinaklarga ega bo'lgan mudofaa devori tuzilishi qadimgi Mesopotamiya shaharlarining mudofaa tizimlariga uslubiy jihatdan yaqin turadi, bu esa uzoq masofali madaniy aloqalar yoxud harbiy-arxitektura an'alarining o'zaro ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Qiziltepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on va Talashkan kabi zamondosh shaharlar singari, Uzunqir ham ikki qatorli mudofaa devori tizimi bilan mustahkamlangan.

Yodgorlikning ichki tuzilishini yaxshiroq tushunish uchun uni yaqin atrofdagi Yerqo'rg'on shahar xarobasi bilan qiyoslash o'rinli. Yerqo'rg'onning ichki shahar mudofaa devori balandligi 8 metrga yetgan bo'lib, har 10–12 metr oralig'ida minoralar o'rnatilgan; ichki shaharning shimolida to'g'ri to'rtburchak g'ishtdan qurilgan platforma ustiga ark (qal'a-qo'rg'on) barpo etilgan, janubida esa ibodatxona majmuasi joylashgan, shimoliy va janubiy tomonlarida shahar darvozalari bo'lgan. Sharqiy devorlar bo'ylab kulolchilik ustaxonalari to'plangan, tashqi shaharning janubida daxma (dafn inshooti), shimolida esa maqbara qurilgan, janubi-sharqiy qismida aholi turar-joylari aniqlangan. Garchi Uzunqirning barcha tarkibiy qismlari Yerqo'rg'onchalik batafsil o'rganilmagan bo'lsa-da, ikkala yodgorlikdagi umumiy rejalashtirish tamoyillari — ichki qal'a (ark), tashqi shahar va ularni o'rab turgan mudofaa devorlari tizimi — Janubiy Sug'd shaharsozligiga xos yagona arxitektura-rejalashtirish an'alarining mavjudligidan dalolat beradi.



Uzunqirdan topilgan sopol buyumlar majmuasi yodgorlikning xronologik jihatdan aniq davrlashtirilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dastlabki, Uzunqir I bosqichiga oid qo'lda yasalgan, yarim doira shaklidagi, qizil-jigarrang angobli idishlardan tortib, Uzunqir II bosqichida paydo bo'lgan charxda ishlangan silindrokonus xumlar, bikonik kosalar va to'liqinsimon yelkali xumchalarga qadar bo'lgan taraqqiyot bosqichlari kulolchilik texnologiyasi va estetik didining izchil evolyutsiyasini aks ettiradi. Bu tipologik qator Sangirtepa va Yerqo'rg'onning mos keluvchi bosqichlaridagi topilmalar bilan deyarli bir xil bo'lib, bu esa Kesh va Nasaf vohalari o'rtasida yagona kulolchilik an'alarining mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, Yakkabog' tog'lari yon bag'irlaridagi Daratepa yodgorligidan topilgan charxda ishlangan sopol idishlar ham Uzunqir II va Sangirtepa II bosqichlaridagi namunalarga o'xshashligi bilan ajralib turadi, bu esa Kesh vohasining tog'oldi va tekislik qismlari o'rtasida ham madaniy aloqalar mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Sopol majmuasidan tashqari, mudofaa devorlarining qurilish texnikasi — xom g'isht va "bulkasimon" shakldagi maxsus g'ishtlarning qo'llanilishi — davr me'morchilik texnologiyasi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Qal'a devorlari bo'ylab aniqlangan turar-joy izlari esa maishiy hayot tarzi, uy-ro'zg'or buyumlari va ijtimoiy tabaqalanish masalalarini yoritish uchun istiqbolli tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Ilk temir davri Sug'diyonasida hududiy boshqaruv tizimi bir necha bosqichli manzilgohlar ierarxiasiga asoslangan bo'lgan. Tadqiqotchilar bu tizimni uch darajaga ajratadilar: birinchi daraja — maydoni 5 dan 15 gektargacha bo'lgan, tuman yoki mahalliy voha markazi vazifasini bajaruvchi manzilgohlar (Daratepa, Konimex, Chordara); ikkinchi daraja — maydoni 20 dan 80 gektargacha bo'lgan, viloyat markazi maqomidagi shaharlar (Uzunqir, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Xo'ja Bo'ston); uchinchi, eng yuqori daraja — bir necha viloyatni birlashtiruvchi markazlar (Afrosiyob-Marqanda va Buxoro). Ushbu



tasnifga ko'ra, Uzunqir Janubiy Sug'dning ikkinchi darajali, ya'ni viloyat miqyosidagi yirik shahar markazlaridan biri bo'lib, u qadimgi Nautaka viloyatining ma'muriy-harbiy tayanch punkti vazifasini o'tagan. Manbalarda Uzunqir aynan Nautaka viloyatining yirik harbiy istehkomi sifatida tilga olinishi bejiz emas — uning kuchli mudofaa tizimi shahar zimmasiga strategik chegara-nazorat vazifasi ham yuklatilganidan darak beradi.

Hunarmandchilik ustaxonalarining yirik markazlarda, xususan Afrosiyobda to'planib borishi kabi umumiy tendensiya Uzunqirga ham tegishli bo'lib, bu shahar asta-sekin nafaqat harbiy-ma'muriy, balki hunarmandchilik va savdo faoliyati markaziga ham aylanib borganini taxmin qilish mumkin. Bunday ko'p funksiyali rivojlanish yo'nalishi ilk shahar markazlarining umumiy taraqqiyot qonuniyatiga mos keladi.

Uzunqirning rivojlanish dinamikasini to'g'ri baholash uchun uni Janubiy Sug'dning boshqa yirik markazlari bilan qiyoslash zarur. Yerqo'rg'on, Sangirtepa, Daratepa va Uzunqirning barchasida bosqichma-bosqich qurilish davrlari kuzatiladi: Yerqo'rg'onida to'rtta, Sangirtepada ikkita, Uzunqir va Daratepada esa uchtdan bosqich aniqlangan. Barcha to'rt yodgorlikning eng quyi, dastlabki qatlamlari (Yerqo'rg'on I, Sangir I, Uzunqir I) miloddan avvalgi IX asrning oxiri – VIII asrlarga to'g'ri kelib, ular bir vaqtning o'zida, o'xshash madaniy sharoitda vujudga kelganidan dalolat beradi.

Zarafshon vodiysidagi Ko'ktepa yodgorligi bilan solishtirganda ham qator o'xshashliklar ko'zga tashlanadi: Ko'ktepaning tashqi devori miloddan avvalgi VII asrda 9 metrgacha yetadigan, bir-biriga zich tutashtirib qurilgan uch qatorli devorlar tizimidan iborat bo'lgan (birinchi devor qalinligi 3 metr, o'rta devor 2 metr 60 santimetr, uchinchi devor 3 metrdan ortiq). Bu son ko'rsatkichlari Uzunqirning mudofaa devori qalinligi bilan taqqoslanganda, ikkala shaharda ham mudofaa qurilishiga alohida ahamiyat berilganini, biroq har bir shaharning o'ziga xos muhandislik yechimlariga ega bo'lganini ko'rsatadi.



Shunday qilib, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Sangirtepa va Daratepa Janubiy va Shimoliy Sug'dda parallel ravishda, ammo bir-biriga uzviy bog'liq madaniy-tarixiy jarayon asosida rivojlangan yagona shaharsozlik tizimining tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yodgorliklarning qiyosiy tahlili Sug'd hududida yagona iqtisodiy-madaniy makonning ilk temir davridayoq shakllana boshlaganidan guvohlik beradi.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sug'd hududi Ahmoniylar Fors imperiyasi tarkibiga kiritilgan bo'lib, bu davrda mahalliy shaharlar, jumladan Uzunqir ham, markazlashgan boshqaruv tizimi bilan ma'lum darajada aloqador bo'lgan mahalliy hokimiyat markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Manbalarga ko'ra, Uzunqir qadimgi Sug'd viloyatining Navtaka (Nautaka) deb atalgan mintaqaviy tuzilmasining markazi bo'lgan.

Uzunqirning jahon tarixi kontekstidagi eng muhim voqeasi miloddan avvalgi 329-yilga to'g'ri keladi. Aynan shu yili Ikki daryo oralig'i, Kichik Osiyo va Erondan bosib olib kelinayotgan yerlarni birin-ketin egallab, Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Sug'd hududiga, jumladan Uzunqir shahar devorlari ostonasiga kirib keladi. Bu voqea nafaqat Uzunqirning, balki butun Nautaka viloyatining Ellinizm davri boshlarida yirik geosiyosiy o'zgarishlar girdobiga tortilganidan dalolat beradi. Uzunqirning bu davrgacha saqlanib qolgan qudratli mudofaa devorlari, ehtimol, aynan shu tarixiy bosqichda strategik ahamiyat kasb etgan bo'lishi mumkin.

Shu tariqa, Uzunqir yodgorligi mahalliy Sug'd davlatchiligining ilk shakllanish bosqichidan tortib, Ellinizm davri bo'sag'asidagi yirik tarixiy burilishlargacha bo'lgan uzoq davrni o'zida mujassam etgan noyob tarixiy-arxeologik manba hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, Uzunqir yodgorligi Qashqadaryo vohasi, xususan qadimgi Kesh vohasining ilk shahar madaniyatini o'rganishda noyob va bebaho manba hisoblanadi; uning uch



bosqichli (Uzunqir I, II, III) rivojlanish jarayoni miloddan avvalgi IX asr oxiridan IV asrgacha bo'lgan davrni izchil yoritadi. Ikkinchidan, yodgorlikning mudofaa tizimi — devorlarning bosqichma-bosqich mustahkamlanib, minoralar va jangovar shinaklar bilan takomillashtirilib borishi — davr harbiy-muhandislik fikrining yuksak darajasidan dalolat beradi, garchi devor qalinligiga oid turli manbalardagi ko'rsatkichlar farqi qo'shimcha tadqiqotni talab qilsa-da.

Uchinchidan, Uzunqirning boy kulolchilik majmuasi, xususan Sangirtepa, Yerqo'rg'on va Daratepa topilmalari bilan o'zaro tipologik o'xshashligi, Janubiy Sug'd hududida yagona madaniy-iqtisodiy makonning ilk temir davridayoq shakllanganini ko'rsatadi. To'rtinchidan, manzilgohlar ierarxiyasi nuqtai nazaridan Uzunqir Nautaka viloyatining yirik, ikkinchi darajali markazi sifatida ma'muriy-harbiy va, ehtimol, hunarmandchilik-savdo funksiyalarini bajargan. Beshinchidan, yodgorlikning Ahmoniylar davri siyosiy tuzumi va Makedoniyalik Aleksandr yurishlari bilan bog'liq voqealardagi ishtiroki uning nafaqat mintaqaviy, balki umumjahon tarixi kontekstidagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Kelgusi tadqiqotlarda Uzunqirning hali to'liq ochilmagan stratigrafik qatlamlarini kengroq maydonlarda o'rganish, zamonaviy radiokarbon va boshqa fizik-kimyoviy tahlil usullarini qo'llash, shuningdek, yodgorlikni geografik axborot tizimlari (GIS) yordamida atrofdagi manzilgohlar tarmog'i kontekstida tahlil qilish Uzunqir tarixining hali noma'lum bo'lgan qirralarini ochishga xizmat qiladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat Uzunqir, balki umuman Janubiy Sug'dning ilk shaharsozlik tarixini yanada chuqurroq va aniqroq tiklash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarov A. Qadimgi Nasaf yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Jalilov M. Qashqadaryo vodiysining shahar madaniyati. – Qarshi, 1998.





3. Oltiyev Q.A. Qashqadaryo vohasi ilk temir davri yodgorliklari // Journal of New Century Innovations. – 2022. – Vol. 18, No. 4. – B. 65–69.
4. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar): Monografiya. – Toshkent.
5. Sulaymonov R. Markaziy Osiyo madaniyati tarixi va tarixshunosligiga oid tadqiqotlar (Uzunqir va Podayotoqtepa materiallari asosida).
6. Nazarov D. Yerqo'rg'on va Janubiy O'zbekiston arxeologiyasi // O'zbekiston tarixi jurnali. – 2021.
7. Sug'd vohasidagi ilk davlatchilik // In Academy ilmiy jurnali maqolalari to'plami.
8. Kesh vohasining arxeologik o'rganilishi tarixidan: ilmiy tadqiqot materiallari.
9. Sovetlar davrida O'zbekistonda arxeologiyaga oid tadqiqotlar: ilmiy to'plam.
10. Arxeologik va yozma manbalarda O'rta Osiyo mudofaa inshootlarining aks ettirilishi // Global hamkorlik to'plami. – 2021.
11. Isamiddinov M.X., Rapen K. va boshq. Ko'ktepa va Kesh vohasi yodgorliklarida olib borilgan qo'shma arxeologik tadqiqotlar materiallari. – Samarqand: Samarqand arxeologiya instituti nashrlari.
12. O'rta Osiyo Yoz I madaniyatining o'rganilish tarixi // Jamiyat va innovatsiyalar (Общество и инновации) jurnali.
13. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya: darslik. – Toshkent, 2023.
14. Temir davri // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi materiallari asosida elektron nashr.
15. Uzunqir shahar xarobasi // Society.uz axborot portali materiallari. – 2023.